

**BUYUK IPAK YO‘LINING MIRZACHO‘L URBANISTIK JARAYONLARIDAGI  
TARIXIY O‘RNI****Alibekov Umurzok Yuldashevich***dots – Guliston davlat universiteti**E-mail: [umurzokalibekov@gmail.com](mailto:umurzokalibekov@gmail.com)***Abdumatov Alisher Axmatkulovich***o‘qituvchi - Guliston davlat universiteti**E-mail: [abdumatovalisher@gmail.com](mailto:abdumatovalisher@gmail.com)***Xaydarova Marjona Lutfulla qizi***talaba - Guliston davlat universiteti*

**Abstract.** *This article analyzes the impact of the Great Silk Road on the urbanization and urban development processes of the Mirzachul region. Based on the geographical location of Mirzachul, historical sites, economic and cultural growth factors, as well as archaeological finds, the place of this region in the ancient urban system is highlighted.*

**Keywords:** *Great Silk Road, Mirzachul, urbanization, archeology, trade routes, cultural exchange.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Buyuk Ipak yo‘lining Mirzacho‘l hududi urbanizatsiyasi va shaharsozlik jarayonlariga ko‘rsatgan ta‘sirni tahlil qilinadi. Mirzacho‘lning geografik joylashuvi, tarixiy manzillari, iqtisodiy va madaniy o‘rish omillari, shuningdek, arxeologik topilmalar asosida ushbu hududning qadimiy urbanistik tizimidagi o‘rni yoritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Buyuk Ipak yo‘li, Mirzacho‘l, urbanizatsiya, arxeologiya, savdo yo‘llari, madaniyatlar almashinuvi.*

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik, davlat suverentetini qo‘lga kiritishi bilan o‘lkamiz tarixini yanada chuqurroq o‘rganishda yangi imkoniyatlar yaraldi, o‘tmish tariximizni, ajdodlarimiz yaratgan madaniyatni tadqiq etish imkoni tug‘ildi. Malumki, mustabid tuzum davrida Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishi sho‘rolar davri, partiya raxnomoligi bilan bog‘lab kelindi. Aslida Mirzacho‘l atrofida antic davrlardan o‘troq hayot shakillanib, urbanistik jarayonlar shakillangan.

Buyuk Ipak yo‘li — qadimiy dunyo sivilizatsiyalarini bir-biri bilan bog‘lagan eng muhim savdo va madaniy yo‘ldir. U faqat iqtisodiy aloqalarni emas, balki shaharsozlik, madaniyat, ilm-fan va diniy hayotning ham rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. O‘zbekiston hududi da joylashgan Mirzacho‘l (Sirdaryo viloyati va uning atrofidagi keng tekisliklar) ham bu

jarayonlardan chetda qolmagan, balki o‘ziga xos urbanistik o‘shish markazlaridan biriga aylangan.

Mirzacho‘l — Sirdaryo daryosining quyi oqimida, Samarqand va Toshkent oralig‘ida joylashgan keng tekislikdir. U qadimdan tabiiy geografik jihatdan karvon yo‘llari uchun qulay hudud hisoblangan. Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘i aynan shu voha orqali Samarqand – Jizzax – Yassi (Turkiston) – O‘tror – Sayram yo‘nalishida o‘tgan. Shu boisdan Mirzacho‘l karvon yo‘llari kesishgan tranzit mintaqa sifatida shakllangan.

Buyuk Ipak yo‘li ta‘sirida Mirzacho‘l hududida shaharsozlik jarayonlari bosqichma-bosqich rivojlangan. Arxeologik topilmalar (Oqtepa, Erqo‘rg‘on, Qovunchitepa yodgorliklari) bu yerlarda miloddan avvalgi asrlardayoq shahar madaniyati mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi. Shuningdek, Buyuk Ipak yo‘li orqali o‘tuvchi karvonlarning xavfsizligi uchun:

Karvonsaroylar, qo‘rg‘onlar, rabotlar qurilgan, Sug‘orish tizimlari takomillashgan, Aholi doimiy ravishda ushbu nuqtalarda to‘planib, yangi shahar manzilgohlari vujudga kelgan.

Ushbu jarayonlar Mirzacho‘l vohasida urbanistik tuzilmalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishining asosiy omili bo‘lgan.

Mirzacho‘l urbanizatsiya jarayonlarning rivojlanishida yunon-makedonlar talofati tasirining susayishi va Buyuk Ipak yo‘li muhim ahamiyat kasb etdi. Mil.av. II asrda Xitoyni Farg‘ona vodiysi bilan bog‘lovchi savdo yo‘li Usturushona davlatiga qarashli bo‘lgan Mirzacho‘lning janubiy qismidan o‘tib, Samarqand shahriga brogan. Qadimgi Mirzacho‘l hududidagi shaharlar janubida aloqa-savdo yo‘llari bo‘ylab joylashgan bo‘lib, ularning rivoji aloqa-kommunikatsiya tizimi rivojiga mos ravishda brogan. Buni biz Xo‘jand – Jizzah yo‘nalishida ilk o‘rta asrlarda yirik savdo va ishlab chiqarish markazlari bo‘lgan Savat, Jizzah, Kurkat, Bunjikat, kabi shaharlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Shu tariqa O‘rta Sirdaryo havzasida yangi davlatchilik boshqaruvi vujudga keldi.

Miloddan avvalgi II va milodiy IV asrlarda qang‘arlar hukmronligi davrida mirzacho‘lning atrofi va tog‘ oldi havzalarida mahalliy aholi va ko‘chmanchi chorvadorlarning o‘troqlashuvi hisobiga aholi ko‘payib bordi. Ilk o‘rta asr shaharlari ularning atrofidagi qal‘a-qurg‘onlar hisobiga o‘tdi. Bunda Buyuk Ipak yo‘li savdosi muhim o‘rin tutgan.

Somoniylar davridagi siyosiy mu‘tadillik, iqtisodiy rivojlanish sababli Mirzacho‘l shaharsozlik rivojlanib bordi. Buyuk Ipak yo‘li o‘tgan hududlarda yangi yerlar o‘zlash tirilib karvonsaroy qal‘a-qo‘rg‘on va shaharlarda aholi o‘troqlasha boshladi.

Nurota (Xushkat) IX-XI asrlarga oid yodgorlik, Sayxunobod tumani, Sholkor jamoa xo‘jaligi hududida, Sirdaryo bo‘yida joylashgan shahar hududida 40-45 gektarni tashkil

etgan, o‘zlashtirish davrida bir qismi ekin ekiladigan yerlarga qo‘shib yuborilgan, bir qismni ustida zamonaviy qishloq joylashgan, qolgan 7.5 gektari esa qabriston uchun ajratilgan.

Mazkur shahar IX-asr oxirlarida Sirdaryoning o‘ng sohildagi Binokent shahriga karvonlar o‘tuvchi qo‘rg‘on qo‘nlg‘a sifatida vujudga kelgan. Bu yerdagi hayot to IX asr birinchi yarmiga qadar davom etgan. Ikkinchi shahar hayotining rivojlanishi mo‘g‘illar istilosidan keyingi davriga to‘g‘ri keladi. Shahar o‘rta asrlar davrida Xushkat nomi bilan yuritilgan.

Nurota shahar yodgorligidan topilgan sopol buyum qoldiqlari, numizmatik (tangalar) topilmalar shaharning shosh (choch) bilan uzviy aloqada bo‘lganligini isbotlaydi. Ikkinchi tomondan esa mazkur shahar Ustrushona shaharlari aynan, somoniylarning Kultepa (Savod) shahri bilan uzviy aloqada bo‘lganligini ashyoviy dalillar ko‘rsatadi. Shahar xarobalarining tashqi ko‘rinishidan markaziy minora bo‘lganligi, shahar shimolida n janub tomon markaziy bo‘lgan. Shaharning asosan taraqqiysiga Movaraunahming janubiy viloyatlarini shimol bilan birlashtiruvchi karvon yo‘li katta rol o‘ynagan. Arab geograflari ma‘lumotga ko‘ra bu yo‘l Xavos orqali o‘tgan. Ibn Xurdotbek ma‘lumotiga ko‘ra Xavosdan ash-Shom daryosi buyigacha 9 forsax. Keyinchalik esa binokent ko‘prikdan o‘tiladi.

O‘lkamizning qadimiy tarixini o‘rgangan arxeolog olim A.A. Grisinin fikriga ko‘ra Binokent shahri qarshisida IX-asrda avval daryodan o‘tish hududi, karvonsaroy Chochda shu davrda mavjud bo‘lgan sopol buyumlar bu yerdan topilgan. Keyinchalik karvonsaroy atrofida shahar shakllangan.

Shaharga qadar Sho‘rko‘l yaqinida Uchyog‘och, Mirza-Rabot degan joyda, va Guliston tumani „Boyovut“ shirkatlari uyushmasida Kallatepa degan joylarda, karvonlar to‘xtab o‘tishi uchun karvonsaroylarlar bo‘lgan. Mazkur hududlarda qadimshunos olimlar M.E.Masson, Y.F.Buryakov va rus tarixchisi V.F.Karavoyevlar karvonsaroylar qoldig‘i ko‘rkandiklarini yozib qoldirishgan. Arab geograf sayyoh Kudama ham o‘z davrida mazkur karvonsaroylar haqida yozib qoldirgan.

Buyuk Ipak yo‘li insoniyat tarixida eng muhim iqtisodiy va madaniy hodisalardan biri sifatida qadimiy sivilizatsiyalar o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajargan. U orqali Sharq va G‘arb dunyosi o‘rtasida nafaqat tovarlar, balki g‘oyalar, dinlar, san‘at, ilm-fan, shaharsozlik tajribalari ham almashib turgan. O‘zbekiston hududi bu yo‘lning markaziy qismida joylashgani bois, bu yerdagi vohalar, ayniqsa Mirzacho‘l hududi, tarixan yirik urbanistik jarayonlar shakllangan maskanlardan biri bo‘lgan. Mirzacho‘l o‘zining geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va strategik ahamiyati bilan qadimdan karvon yo‘llari chorrahasida joylashgan bo‘lib, u Buyuk Ipak yo‘lining muhim tarmoqlaridan biri o‘tgan hudud sifatida tarixda alohida o‘rin egallaydi. Bu voha orqali o‘tgan yo‘llar orqali Samarqand, Jizzax, Yassi (Turkiston), O‘ror, Sayram va Toshkent kabi yirik shaharlar o‘zaro bog‘langan.

Shunday qilib, Mirzacho‘l hududi karvonlar uchun oraliq bekat, savdo-sotiq va madaniy aloqalar markaziga aylangan.

Buyuk Ipak yo‘li tufayli Mirzacho‘l vohasida ijtimoiy-iqtisodiy va urbanistik jarayonlar shakllanib, bu hududda dastlabki manzilgohlar, karvonsaroylar, qo‘rg‘onlar va sug‘orish tizimlari paydo bo‘lgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Mirzacho‘lning turli nuqtalarida qadimiy shahar xarobalari topilgan bo‘lib, ular bu yerda miloddan avvalgi asrlardayoq shahar hayoti shakllanganini ko‘rsatadi. Masalan, Oqtepa, Qovunchitepa, Erqo‘rg‘on kabi yodgorliklar bu mintaqada qadimiy urbanistik madaniyat mavjud bo‘lganining yorqin dalilidir. Bu shaharlar asosan savdo-sotiq, hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligi markazlari sifatida faoliyat yuritgan. Ularning rivojlanishida Buyuk Ipak yo‘lining o‘rni beqiyos bo‘lib, aynan karvon yo‘llari orqali bu hududga yangi texnologiyalar, dehqonchilik usullari, me‘moriy an‘analari kirib kelgan.

Mirzacho‘lning geografik sharoiti — Sirdaryo vodiysi bilan bog‘langan keng dasht zonasi — qadimiy karvonlar uchun tabiiy yo‘l vazifasini o‘tagan. Qadimiy manbalarda bu hudud “cho‘l” deb atalgan bo‘lsa-da, unda suv manbalari, ariq va soylarga asoslangan sug‘oriladigan yerlar mavjud bo‘lgan. Ayniqsa, yozgi savdo mavsumlarida karvonlar Mirzacho‘lning tabiiy resurslaridan foydalanib, chorva boqish, suv olish va dam olish uchun bu yerda to‘xtab o‘tganlar. Shu sababli, dastlabki karvonsaroylar, rabotlar va qo‘rg‘onlar aynan Mirzacho‘l orqali o‘tuvchi yo‘llarda qad rostlagan. Keyinchalik bu joylarda doimiy aholi yashaydigan manzilgohlar shakllanib, ular asta-sekin shaharlar darajasiga ko‘tarilgan.

Buyuk Ipak yo‘lining Mirzacho‘l urbanistik tizimiga ta‘siri faqat iqtisodiy emas, balki madaniy va sotsiologik jihatdan ham chuqur bo‘lgan. Savdo-sotiq bilan birga bu yo‘l orqali turli xalqlar, tillar, dinlar va madaniyatlar kirib kelgan. Dastlab zardushtiylik ta‘siri sezilgan bo‘lsa, keyinchalik buddaviylik, manixeylik va nihoyat islom dini bu hududda o‘z izlarini qoldirgan. Bu diniy va madaniy qatlamlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida Mirzacho‘l shaharlarining urbanistik ko‘rinishida turli madaniy unsurlar aks etgan — masalan, diniy inshootlar, qabristonlar, hunarmandchilik markazlari va karvonsaroylarning me‘moriy uslublarida Sharq va G‘arb an‘analarining uyg‘unligi kuzatiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham Mirzacho‘l vohasi Buyuk Ipak yo‘li davrida rivojlangan. Savdo aloqalari tufayli bu yerga Sharqdan ipak, choy, ziravorlar, G‘arbdan esa metall, shisha, zargarlik buyumlari, shuningdek ilmiy asarlar keltirilgan. Mahalliy aholining iqtisodiy hayoti shu yo‘l orqali jonlangan: savdogarlar, dehqonlar, ustalar va hunarmandlar o‘rtasida faol almashinuv bo‘lgan. Natijada Mirzacho‘l shaharlarida mustaqil iqtisodiy tizim shakllanib, ular nafaqat tranzit nuqta, balki ishlab chiqarish markaziga aylangan. Aholining turmushi, kiyinish madaniyati, ovqatlanish an‘analari ham turli xalqlar bilan bo‘lgan aloqa natijasida boyigan.

Arxeologik topilmalar Mirzacho‘l shaharlarida shisha buyumlar, kulolchilik mahsulotlari, metall asboblari, tangalar va yozuv namunalari mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu esa savdo-sotiqning faolligidan tashqari, ilm-fan va yozma madaniyatning ham bu hududda mavjud bo‘lganini anglatadi. Shaharsozlik nuqtai nazaridan esa, Mirzacho‘l manzilgohlarida ko‘plab mudofaa devorlari, minoralar, suv omborlari va markaziy bozorlar joylashgan bo‘lgan. Bu belgilar Mirzacho‘lning o‘sha davrda o‘ziga xos urbanistik markazga aylanganini tasdiqlaydi.

Arablarning istilosi davrida Mirzacho‘l hududi yangi sug‘orish tizimlari bilan boyitildi, bu esa shahar hayotini yanada jonlantirdi. Islom dini kirib kelishi bilan bu yerlarda yangi masjidlar, madrasalar va qishloqlar paydo bo‘ldi. Islom madaniyati bilan birga arab yozuvi, ilm-fan va san‘at sohalarida yangi bosqich boshlandi. Keyinchalik, Temuriylar davrida Mirzacho‘l orqali o‘tuvchi savdo yo‘llari yanada jonlandi. Amir Temur davrida Samarqand, Toshkent, O‘tror va Sayram o‘rtasidagi savdo-sotiq aloqalari kuchayib, Mirzacho‘l ushbu yo‘nalishdagi muhim tranzit zonaga aylangan. Ulug‘bek davrida esa astronomik va ilmiy markazlar faoliyati bu hudud orqali tarqalgan bilim oqimi bilan bog‘liq bo‘lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida chor Rossiyasi O‘rta Osiyoga kirib kelgach, Mirzacho‘l yana yangi iqtisodiy bosqichga o‘tadi. Sug‘orish tizimlarini tiklash, yerlarni o‘zlashtirish, temir yo‘llar va transport yo‘llarining qurilishi bu hududni zamonaviy urbanistik rivojlanish sari olib bordi. XX asrda esa Mirzacho‘l Sovet davrida keng miqyosda meliorativ o‘zgarishlarga uchradi, yangi shahar va qishloqlar barpo etildi. Bu esa Buyuk Ipak yo‘li tarixidan kelib chiqqan qadimiy urbanistik an‘analar bilan bog‘liq jarayonlarning davomiyligini ko‘rsatadi.

Mirzacho‘lning Buyuk Ipak yo‘lidagi tarixiy o‘rni nafaqat moddiy, balki ma‘naviy jihatdan ham beqiyosdir. Bu hudud orqali o‘tgan karvonlar bilan birga, insoniyat tafakkuri, ilm, san‘at, me‘morchilik va dinlar o‘zaro uyg‘unlashgan. Mirzacho‘l bugungi kunda ham bu tarixiy yo‘lning merosini o‘zida saqlagan maskanlardan biri bo‘lib, bu yerda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar o‘tmishdagi shaharsozlik madaniyatining naqadar rivojlanganini yana bir bor tasdiqlaydi. Har bir topilma, har bir xaroba, har bir qadimiy yo‘l izi — bu xalqimizning o‘tmishdagi yuksak sivilizatsiya darajasini eslatadi.

Shunday qilib, Buyuk Ipak yo‘li Mirzacho‘l urbanistik tarixida o‘ziga xos asosiy o‘zak vazifasini bajargan. U bu hududda iqtisodiy faoliyatni jonlantirgan, madaniy hayotni boyitgan, shaharsozlik tizimini rivojlantirgan va xalqaro aloqalarni mustahkamlagan. Mirzacho‘lning bugungi zamonaviy ko‘rinishida ham qadimiy urbanistik izlar, tarixiy yo‘nalishlar va madaniy qatlamlar mavjud. Bu esa Buyuk Ipak yo‘lining nafaqat o‘tmish, balki hozirgi va kelajak uchun ham beqiyos tarixiy meros ekanligini ko‘rsatadi.

Xushkat (Nurota) shahrining vujudga kelishi Somoniylar davlatining shakllanishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir. Ya'ngi bir davlatning yangi iqtisodiy yuksalishi sababli vujudga kelgan shahar, shu Somoniylar davlati tannazuli bilan, Nurota shahri ham asta-sekin xarobaga aylanib brogan. X asrning yarmidayoq Sirdaryoning yuqori oqimida karvonlarning yangi bir o'tishi joyi shakllanishi bilan Xushkat shahari o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, Mirzacho'lning o'zlashtirilishi, aholining o'rnashishi shaharsozlik madaniyati, urbanistik jarayon Buyuk Ipak yo'lining Mirzacho'l hududidan o'tishi davridan boshlangan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуматов, А. А. (2024). АКАДЕМИК АБДУЛАХАД МУҲАММАДЖОНОВ ИЛМИЙ МЕЪРОСИДА ТАРИХИЙ ТАФАККУР МАСАЛАСИ. Science and innovation, 3(Special Issue 6), 426-431.
2. Yuldashevich, A. U., Akhmatkulovich, A. A., & Ugli, R. I. K. (2024). STRUGGLE FOR THE NEWLY FORMED ORENBURG-TASHKENT CARAVAN TRADE ROUTE OF THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKHAN KHANATE AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY, 5(12), 16-21.
3. Komil o'g, M. R. S., Axmatkulovich, A. A., & Vildanovich, G. S. (2025, May). XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI VA BAYTUL-HIKMA OLIMLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK. In International Conference on Modern Science and Scientific Studies (pp. 305-311).
4. Komil o'g, M. R. S. (2025, May). TURK XOQONLIGI: DASTLABKI DAVLATLILIK SHAKLLARI VA ULARNING O'RTA OSIYO TARIXIDAGI ROLI. In International Conference on Modern Science and Scientific Studies (pp. 343-349).
5. Юлдашевич, А. У., & Абдуматов, А. А. (2025). ЯНГИ ЙИЛ ТАНГАЛАРИ. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 3(32), 68-74.
6. Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). MIRZACHO'LNI O'ZLASHTIRISH VA KO'CHIRISH SIYOSATI: TARIXIY-TAHLILY YONDASHUV. In International Educators Conference (pp. 207-212).
7. Абдуматов, А. (2024). АКАДЕМИК АР МУҲАММАДЖОНОВНИНГ ТОПОНОМИКА ФАНИ РИВОЖИДАГИ РЎЛИ. Talqin va tadqiqotlar, 1(1).

8. Dilshod, A., Abdumatov, A., & Ismoil, R. (2025). FORMATION AND DEVELOPMENT OF HISTORICAL GEOGRAPHY GULISTAN STATE UNIVERSITY. TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(6), 47-53.

9. Rayimjonov, I., Abdumatov, A., & Abdualimova, Z. (2024). FARG 'ONA VODIYSI ARXELOGIYA YODGORLIKLARI QURILISH TARIXIGA OID AYRIM MULOHAZALAR. Talqin va tadqiqotlar, 1(1).